

BERDAQ SHE'RIYATIDAGI MAZMUM-MOHIYAT

Sobirova Nasibaxon Jamoliddin qizi

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti talabasi

Email:jamoliddinovnanasibaxon7@gmail.com

Telefon:+99893 280 67 05

Annotatsiya: *O'zbek va qoraqalpoq xalqlari azaldan bir-biri bilan qondosh xalq sifatida yaqin bo'lib kelgan. Bu do'stlik ularning adabiyotida ham o'z aksini topgan. Xalq og'zaki ijodida ham har ikki xalqqa tegishli asarlar anchagina uchraydi. Keyingi yillarda ko'pgina badiiy adabiyot namunalari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Mustaqillik davriga kelgach, bu adabiy aloqalar yanada kengayib va takomillashib bormoqda. Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaqning qoraqalpoq adabiyoti taraqqiyotidagi roli nihoyatda kattadir. U 1827-yili Mo'ynoq shahrida tug'ilgan. Yoshligida yetim qolib, og'ir kunlarni boshidan kechirgan. Eski maktab va boshlang'ich madrasa ta'limini olgan. Yoshligidan she'riyatga qiziqadi, do'mbira chertib, she'r to'qidi, ashulla aytadi. U 25 yoshlarida xalq orasida iste'dodli shoir sifatida tanilgan edi. Shoir she'rlarida xalq hayotini haqqoniy aks ettirgan edi. Ushbu maqolamiz orqali shoirning she'riyatidagi ilg'or surilgan g'oyalar haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.*

Kalit so'zlar: *Berdaq hayoti va ijodi, she'rlari, asarlari, asos, mutolaa, ma'rifat, madaniyat, tarixiy voqealar, qoraqalpoq xalqi, qoraqalpoq she'riyati, qoraqalpoq dostonlari, xalqparvarlik, she'riyatidagi asosiy g'oya.*

Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaqning “Xalq uchun”, “Soliq”, “Yoz kelarmu”, “Bo'lgan emas” kabi she'rlarida mehnatkash xalq ommasining hayotidan olingan lavhalar mahorat bilan tasvirlangan. Bunda xalq boshiga tushgan musibatlarning ko'pchiligiga asosiy sababchi amaldorlar ekanligi aytilib, ularning kirdikorlari ayovsiz fosh etilgan. Shoirning “Shajara”,

“Xorazim”, “Omongeldi”, “Oydosbiy” va “Axmoq podsho” kabi dostonlari xalq orasida juda mashhur bo’lgan.

Qoraqalpoq xalqi tarixida juda murakkab jarayonni bosib o’tgan. Asosan, chorvachilik bilan shug’ullangan qoraqalpoqlar uzoq asrlar ko’chmanchilik hayotini boshidan kechirdi.

Ho’kizim.

Yelkasiga bo’yinturuq qo’ndirib,
Yer haydayman, o’z ra’ringa ko’ndirib.
Achchig’lanib tayoq ursam do’ndirib,
Tortadi ter to’kib, qora ho’kizim.
Nelarni ko’rmadi yoronlar boshim,
Azob-u g’urbatdan oqti ko’z yoshim.
Umrim bo’yi qo’sh haydashgan yo’ldoshim,
Bellaringa quvvat qora ho’kizim.

Ushbu satrlardan kitobxon qoraqalpoq xalqi nafaqat chorvachilik bilan shug’ullanganini balkim, o’sha jarayonda xalqning azob-uqubatlar chekayotgan holat tasvirini ham uqtirib ketganligini anglash mumkin.

Berdaqning dostonlariga to’xtaladigan bo’lsak, “Ahmoq podsho” nomli dostonida zolim xonlarni qattiq tanqid qildi. Asarda Ahmoq podsho uzoq vaqt farzand ko’rmaydi. Keyin uning Gulim ismli xotini qizli bo’ladi. Podsho esa bundan g’azablanib, xotini va qizini yo’q qilishni buyuradi. Dono cho’ri ayol Zoraning tadbirkorligi tufayli bular omon qoladi. Qizi Gulzor ulg’aygach, otasini borib ko’radi. Axmoq podsho esa o’z qiziga oshiq bo’lib qoladi. Qizi podsho taklifini rad etgach, uni itlarga talatib o’ldirishni buyuradi. Eng vahshiy itlar ham qizga yaqinlashmaydi. Aksincha, ular tilga kirib, podshoni qarg’aydi. Gulzor uzoq vaqt podsho ko’zidan yashirinib, o’rmonda yuradi. Keyin esa kelib Axmoq podshoni o’ldiradi. Asarning mazmunidan ham ko’rinib turibdiki, xalq boshiga kelayotgan kulfatlarga Axmoq podsholarga o’xshash zolim va benomus hukmdorlar sababchidir.

Bo'lgan emas.

Dunyo yaralgandan beri,
Podsho odil bo'lgan emas.
Shoirilar qalam olganda,
Xatga to'g'ri solgan emas¹.
Inaqurbekning bollari²,
Har nega yetdi qo'llari.
Ochiq, keng edi yo'llari,
Hech vaqt horib, tolgan emas.
Bo'lmadi qilgan niyatim,
Xo'r bo'ldi xalqim, himmatim.
Yig'lay-yig'lay o'tdik yetim,
Yig'lamas vaqt bo'lgan emas.
Bizning xalqning biylari³,
Sozdir jahonda o'ylari.
Doim taralla kuylari,
To'g'ri javob aytgan emas.
Mening aytgan chin so'zim,
So'zim emas, mening o'zim.
Yumilguncha ikki ko'zim,
Hech vaqt yoshsiz bo'lgan emas.

Ushbu satrlardan esa adolatsiz podshohlar va aziyat cheksiyotgan xalq tasvirini anglash mumkin. Ular goh Buxoro, goh Xiva xonliklari tarkibiga kirgan territoriyalarda yashadi. O'zlarining milliy davlatlari faqat XX asrdagina vujudga keldi. Qoraqalpoq xalqi yozuvga asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ega bo'ldi. Shuning uchun ularning adabiyoti tarixi

¹ –Bu satrda shoir Berdaq o'zidan avvalgi ko'p shoirlarning podshohlarga qasida yozish bilan ovora bo'lganliklariga kinoya qiladi.

² –bu bolalar ma'nosida.

³ –bek.

asosan xalq og'zaki ijodi janri bo'lgan ertak, qo'shiq va dostonlardan iboratdir. Qoraqalpoq xalqining "Qirq qiz", "Alpomish", "Er qo'shgay", "Mast podsho", "Shahriyor" singari dostonlari xalq orasida juda mashhurdir. Bundan tashqari, O'rta Osiyo xalqlari og'zaki ijodida mashhur bo'lgan "Oshiq G'arib", "Yusuf va Zulayho", "Oshiq Xamro", "Toxir va Zuhro", "Yusuf Axmad" kabi dostonlar ham qoraqalpoq xaqi orasida keng tarqalgan. Bu dostonlarning deyarli barchasida vatanparvarlik, xalqparvarlik motivlari yetakchi o'rinni egallaydi.

XX asr boshlaridagi qoraqalpoq adabiyotining rivoji ham ancha murakkab yo'ldan bordi. Bu paytda Rossiyada ro'y berayotgan katta ijtimoiy-tarixiy voqealar qoraqalpoq xalqi hayotiga ham ta'sir qildi. Qoraqalpoq ziyolilari Oktyabr inqilobiga ham turlicha munosabatda bo'ldilar. Abbas Dabilov, Hidir Niyoz, Sodiq Nurimbetov singari yozuvchilar esa aksincha xalqning bolsheviklarga qarshi harakatini yoqlab chiqdilar. Qoraqalpoqlar 1930-yilda avtonom respublika bo'lib RSFSR tarkibiga kritildi. 1936-yilda esa O'zbekiston SSR tarkibiga kritildi.

Qoraqalpoq folklorini tekshirgan birinchi tadqiqotchi Ch.Valixonov, Markaziy Osiyo xalqlari ichida eng qo'shiqchi xalq qoraqalpoqlardir. Ulardan keyin turkmanlar turadi, degan edi. Rus folklorshunos olimi A.Belyayev esa qoraqalpoqlarni "Sahro bulbullari" deb atagandi. Haqiqatan ham, turli janrda yaratilgan qo'shiqlarda badiiy yuksaklik bilan birga falsafiy teranlik hamoxang bo'lib keladi. Ko'pgina xalq maqolalarining mazmuni qo'shiq qilib kuylanadi. Bu qo'shiqlar ma'lum darajada, xalqni to'g'ri va halol yashashda, mehr-muruvatli, diyonatli bo'lishida tarbiya bo'lib xizmat qilgan

Anov turgan olmami, anormikan,
Soyasida turgan sevgan yormikan.
Soyasida turgan sevar yor bo'lsa,
Ikkimizni qo'shar kunlar bormikan?
Qizil gulni ekdim qizlar ko'rsin deb,
Har shoxasi yuz ming alvon bo'lsin deb.

O'tganida, ketganda yorim ko'rsin deb,
Shul yorning ishqida yurgan kunlarim.

Xullas, qoraqalpoq xalq klassik adabiyoti nisbatan kechroq yozma adabiyotiga ega bo'lsa-da, unda xalq hayotini haqqoniy aks ettiruvchi bir qancha asarlar yaratildi.

Bu adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishida xalq og'zaki ijodining roli katta bo'ldi. Ko'pgina qo'shiqlar, latifalar, masallar, ertaklar, dostonlar qoraqalpoq xalqi shoirlari tomonidan kuyga solinib ijro etildi. Xalq shoirlari ham san'atkor, ham yozuvchi sifatida mashhur bo'lgan. Ikkinchidan, qoraqalpoq yozma adabiyotining shakllanishida bevosita o'zbek adabiyotining ro'li katta bo'ldi. O'zbek xalqi bilan yonma-yon yashagan qoraqalpoq xalqi madaniyatining vakillari Buxoro va Xiva madrasalarida o'qigan edi.

Yaxshiroq

Ishni ishla, tug'ilgansan el uchun.
Kindik qoni tomgan aziz yer uchun,
O'lib ketguningcha xizmat yaxshiroq.
Xiva xoni qasdla yurt bosib oldi,
Molsiz aholiga ko'p soliq soldi.
Soyador, mevador yo'g'on bir **org'it**⁴,
Soni yuz safosiz, toldan yaxshiroq.

Xulosa.

Berdaqning ko'p sonly lirik she'rlarida va dostonlarida qoraqalpoq xalqining XVIII-XIX asrlardagi ijtimoiy hayoti keng va har tomonlama aks etadi. Berdaq demokratik shoir sifatida o'z davridagi voqealar va ijtimoiy munosabatlarni ilg'or mavqelarda turib baholaydi. U o'z asarlarida teng huquqlilik, gumanizm, vatanparvarlik, g'oyalarini tashviq etdi: akspulatatlar⁵ni shavqatsizlik bilan fosh etdi, mazlumlarni himoya qildi,

⁴ –daraxtning bir turi.

⁵ –oddiy xalqni ezib ishlatuvchi shaxs yoki shaxslardan iborat guruh.

xonlar va podshohlar zulmiga qarshi bosh ko'targan jasur kurashchilarni kuyladi. Berdaq p'z dunyoqarashi, ijyimoiy-siyosiy tafakkuri jihatidan o'z zamonasidan ancha oldinga ketgan edi.

Ezilgan xalq ahvoli mavzui Berdaq ijodiga singib ketgan. Berdaq o'zining “Bo'lgan emas”, “Soliq”, “Bu yil”, “Umrin” va boshqa ko'p she'rlarida mehnatkashlarning og'ir hayotini, ekspulatlarning mudhish zulmini ko'rsatadi. Demokrat shoir, xalqning g'amho'r kuychisi, hukmron sinflarni erkin fosh etgan, katta mardonavorlikka ega inson, yuksak iste'dod sohibi, taraqqiyparvar mutaffakkir, bilimdon muarrih, o'z davrining solnomanavisi ulug' insonparvar va internatsionalist, mohir so'z ustasi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq – qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri, xalq qalbida mangu yashaydi. Uning ijodiy merosi ko'p millatli o'zbek xalqi madaniyatining qimmatli bir bo'lagidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davkarayev N. Ocherki po istorii dorevoluyusionnoy karakalaxskoy literature?. T. 1959.
2. Nurmuxammedov M. Qoraqalpoq adabiyoti tarixi. T. 1978.
3. Tojiboyev A. Sir qo'shiqlari. T. 1970.
4. Berdaq. Tanlangan asarlari. T. 1978.
5. Kaipberganov T. Gumroxlar. Roman. T. 1978.
6. “Berdaq she'riyatidan” X.S.Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar instituti. (Mirtemir tarjimasini) Toshkent – 1983.